

OLTIN BESHIK

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir kampir bilan bir chol bor ekan. Ularning ikki qizi va asrab olgan bir o‘g‘li bor ekan. Oylar, yillar o‘tibdi; qizlar ham, o‘g‘il bola ham ulg‘ayaveribdi. Kunlardan bir kun kampir bilan chol o‘tirib maslahat qilishib: «O‘g‘limiz balog‘atga yetib qoldi, uylantirsakmikan?» - deb bosh qotirishibdi. Keyin o‘g‘illarini oldilariga chaqirib:

- O‘g‘lim, endi sening yoshing ulg‘aydi - 18 ga kirding. Biz seni uylantirsak, degan edik. Mana shu shahardagi kimning qizini senga olib beraylik? — deb so‘rabdilar.

Yigit o‘ylanmy-netmay:

- Men sizning mana shu katta qizingizni olaman, - deb javob beribdi. Kampir bilan chol «Bu qandoq bo‘lar ekan?» — deb bosh qashibdilar. Akasining so‘zini eshitgan opa-singil ham o‘ylab qolishibdi.

Shundan keyin, bola hadeb «Dada men sizning katta qizingizni olaman», — deb qistayveribdi. Opa-singil akasining fe‘li yomon ekanligini bilib, gapni bir joyga qo‘yib, uydan qochibdilar. Yo‘l yuribdilar, mo‘l yuribdilar-da, bir joyga yetibdilar. Bir oz dam olaylik, deb daraxt ostida o‘tiribdilar.

Nariroqda bir katta singlisining suv ichkisi kelibdi. Nariroqda bir katta hovuz bor ekan. Qizcha yugurib borib suv ichaman deganda, opasi:

- Ichma, kiyik bo‘lib qolasan! — deb qichqiribdi. Keyin ular yana yo‘lga tushibdilar. Ukasi:

- Haligi joyda bir moy kavushim qolibdi, - debdi. Opasi:

- Bor, darrov olib kel, lekin haligi suvdan ichma! — deb tayinlab yuboribdi. Ukasi opasining gapiga kirmay, hovuzdagи suvdan ichibdi- da, kiyik bo‘lib qolibdi.

- Ikki moy kavushini ikki shox qilib, opasining oldiga kelibdi. Opasi qattiq xafa bo‘lib, ukasini koyibdi, yig‘labdi, lekin foyda bermabdi. opasi noiloj singlisini yetaklab yo‘lga tushibdi.

- Bir tog‘ning etagida oqib turgan chashma bo‘yida o‘tirib dam olishibdi.

- Ukasi chashma bo‘yida o‘tlab yuribdi, opasi bir toshning ustida boshi qotib, qayg‘uga botib, mayda toshlarni chashmaga otib, mungli- mungli qo‘shiqlar aytib o‘tiraveribdi.

- Bir vaqt haligi o‘tirgan toshi yorilib, katta qiz toshning ichiga kirib g‘oyib bo‘lib ketibdi. Ukasi bir vaqt qarasa, opasi yo‘q. Yig‘lab- yig‘lab opasini qidirishga tushibdi. Qidirib tog‘larni aylanibdi, har bir toshni sinchiklab qarab ko‘ribdi.

— Qarasa, haligi opasi o'tirgan toshning orasidan bir tutam soch chiqib turgan emish. «Opamni tosh yutibdi» deb yana qattiqroq yig'labdi, kuyinib:

Ochil-ochil, toshey.

Men senga yo'ldoshey.

Bir opam bor, ko'rayin,

Diydoriga to'yayin.

Ochilg'oysan, ochil.

Ochilsang ham ochil.

Ochilmasang ham ochil,

Ochil deyman, ochil...

— deb qo'shiq aytib toshni tirmalab yig'layveribdi. Birdan toshning ichidan opasining:

Ochil, toshim, ochil.

Ochilsang ham ochil.

Tashqarida bir singlim bor.

Diydorina etma zor,

Men ukamni ko'rayin,

Diydorina to'yayin...

deb aytayotgan qo'shig'inining ovozi kelibdi. Shu vaqt birdan tosh tasirlab yorilib ketibdi-da, opasi toshning orasidan chiqib kelibdi. keyin ukasiga:

— Sen mening so'zimga kirmay, hovuzdag'i suvdan ichding-da, mana kiyik bo'lib bo'lib qolding. Senga o'pka qilib, chiqmay degan edim, lekin senga ichim achidi», — deb ukasini boshlab yana yo'lga tushibdi. Yurib-yurib boshqa bir podshoning yurtiga yetibdilar. Shu yurtda bir kampirnikida turib, kun ko'ra boshlabdilar. Kunlardan bir kun shu yurtning podshohi o'tib keta turib, qizni ko'rib qolibdi-da, unga oshiq bo'libdi. Podsho kampirnikigasovchi yuboribdi, qiz ham rozilik beribdi. Podsho to'y-tomosha qilib, katta qizni xotinlikka olibdi.

Oradan bir qancha vaqlar o'tibdi. Kunlardan bir kun podsho ovga chiqib ketibdi.

Podshoning katta xotini kichik xotiniga:

- Yuring boqqa chiqamiz, hovuz bo'yida o'tiramiz, - debdi-da, boshlab olib borib, hovuzga itarib yuboribdi. Ukasi kiyik buni ko'rib turgan ekan.

Podsho ov ovlab kelgandan keyin yangi olgan xotinini uyiga kiribdi. Qarasa, xotini uyida o'tiribdi.

Shunday bo'lishining sababi: katta xotini bir cho'rini kichik xotini suratiga kiritib, kiyimlarini kiydirib, yasatib qo'ygan ekan. Podsho buni sezmabdi.

Podsho har gal kichik xotinining oldiga kelganda oyoq kiyiminni yechib, oyog'ini xotiniga uqalatar ekan.

Shunda kiyik ukasi «Bu pochchamning oyoqlari, bu opamning oyoqlari» deb aylanib yurar ekan.

Bu gal u «Bu pochchamning oyoqlari, bu cho‘rining oyoqlari» deb qichqira beribdi.

Podisho hayron bo‘lib xotinidan:

— Nima gap o‘zi? — deb so‘rabdi. Xotin gapni boshqa yoqqa burib yuborish uchun:

— Mening shu kunlarda juda kiyik go‘shti yegim kelyapti, mana shu kiyikni hozir so‘yib berasiz!» — deb turib olibdi.

Bu so‘zlarni eshitgan kiyik — qiz yugurib hovuzning bo‘yiga boribdi-da:

*Pichoqlarni qayradilar,
Tomog‘imga tiradilar,
Hozir meni so‘yadilar,
Qayda bo‘lsang, yetish tezroq.
Nima desang, shu bo‘layin,
Opa, sendan o‘rgilayin,
O‘lmay turib bir ko‘rayin,
Diydoringga bir to‘yayin,
Jonim opam, yetish tezroq...*

deb chinqirib yig‘layveribdi. Shu vaqt hovuzning ichidan opasining ovozi eshitilibdi.

*O‘zim daryo ichida,
Sochim daryo toshinda,
Oltin beshik qoshimda,
Hasan-Husan qoshimda.
Jon ukajon, yig‘lama,
Yurak-bag‘ring dog‘lama,
O‘lamon, deb chog‘lama,
Tez pochchangga xabar ber.*

Podshoning vaziri shu vaqt hovuzning bo‘yida turgan ekan, hamma gaplarni eshitib, olibdi-da, darrov bo‘lgan gaplarning hammasini podshoga aytib beribdi. Podsho odamlarini yig‘ib, hovuzning suvini quritibdi.

Qarasalar podshoning kichik xotini ikki yonida ikki beshikda Hasan-Husan o‘g‘illarini tervatib-allalab o‘tiribdi emish. Podsho xotinini ko‘rib, juda suyunib ketibdi, quchoqlab o‘pibdi, bolalarini suyubdi.

Keyin cho‘ri xotinni otning dumiga bog‘lab, tikonzordan choptiribdi. Katta xotinini ham o‘ldiribdi. Kichik xotinining ota-onalarini o‘ldirtiribdi. Shu yurtda bir ulug‘ hakim bor ekan. Shuni o‘ldirtirib, xotinining ukasini davolashga beribdi. Hakim kiyikni zamzam suvi degan suvgaga cho‘miltirgan ekan, qiz darrov o‘z suratiga

kiribdi. Undan keyin podsho yurtga jar chaqirtirib, qirq kecha-qirq kunduz to‘y-tomosha qilib, murod-maqsadiga yetibdi.

“Oqila qiz” kitobidan